

TOG'AY MUROD ASARLARIDA OBRAZLI IFODALAR VA ULARNING  
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL**Niyozmetov Bunyodbek Qadamboy o'g'li***Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti**bunyodbekniyozmuhammad27@gmail.com**+998977902848*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" (1994) va "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlarida qo'llangan obrazli ifodalar — metafora, ramz, epitet, takror, o'xshatish va xalqona iboralar — lingvopoetik va qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tog'ay Murod nasridagi obrazli tizimning ikki yo'nalishi ochib beriladi: birinchi romanda obrazlilik yerga, mehnatga va xalqning jismoniy azobiga yaqin bo'lsa, ikkinchi romanda u mavhum falsafiy mushohadalar va siyosiy-ramziy ifodalarga ko'chadi. Tahlil natijalari ko'rsatadiki, yozuvchi obrazli ifodalarni faqat badiiy bezak sifatida emas, balki milliy xotira, tarixiy munosabat va insoniy mavjudlikni ifodalovchi lingvopoetik tizimning asosi sifatida qo'llagan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, obrazlilik, metafora, ramz, epitet, takror, badiiy tasvir, xalqona ifodalar, Tog'ay Murod, qiyosiy-tipologik tahlil.

**Annotation:** This article analyzes the figurative expressions — metaphor, symbol, epithet, repetition, simile, and folk idioms — employed in Tog'ay Murod's novels "Otamdan qolgan dalalar" (Fields Left by My Father, 1994) and "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" (One Cannot Die in This World) from a lingvopoetic and comparative-typological perspective. Two directions in the author's figurative system are revealed: in the first novel, imagery is grounded in the earth, labor, and the physical suffering of the people, while in the second it shifts toward abstract philosophical reflections and political-symbolic expressions. The findings demonstrate that Tog'ay Murod employs figurative expressions not merely as aesthetic devices but as the foundation of a lingvopoetic system that encodes national memory, historical consciousness, and human existence.

**Keywords:** lingvopoetics, figurativeness, metaphor, symbol, epithet, repetition, artistic imagery, folk idioms, Tog'ay Murod, comparative-typological analysis.

**KIRISH**

Badiiy matndagi til birliklari ikki qatlamda mavjud bo'lib, biri voqeani xabar qiluvchi kommunikativ qatlam bo'lsa, ikkinchisi his-tuyg'u, obraz va estetik ta'sir yaratuvchi poetik qatlam hisoblanadi. Lingvopoetika esa tilshunoslik va poetikaning chorrahasi bo'lgan fan hisoblanib, aynan shu ikkinchi qatlamni, ya'ni so'zlarning badiiy matndagi obrazli va ekspressiv imkoniyatlarini o'rganadi. XX asr boshlarida Roman Jakobson tomonidan ilgari surilgan "poetik funksiya" nazariyasi asosida tilning estetik funksiyasi alohida kommunikativ kategoriya sifatida talqin etilgan. Jakobson nazariyasiga ko'ra, poetik nutqda e'tibor xabarning mazmuniga emas, balki uning ifoda shakliga qaratiladi. Bu yondashuv lingvopoetikaning nazariy asoslarini mustahkamlaydi hamda til birliklarining fonetik,

leksik, morfologik va sintaktik qatlamlarda poetik yuklama kasb etishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika masalalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Xususan, Shavkat Rahmatullayev badiiy matn tilini struktur-semantik tahlil qilishda til birliklarining konnotativ qatlamini ochib berish zarurligini ta’kidlagan. Shuningdek, A. Nurmonov tomonidan matn lingvistikasi doirasida badiiy nutqning funksional-semantik xususiyatlari izchil tahlil qilingan. Bu tadqiqotlar lingvopoetikaning o‘zbek tilshunosligidagi nazariy-metodologik asoslarini shakllantirdi.

Lingvopoetika tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada joylashganligi sababli, uning metodologiyasi ham ikki yo‘nalishning yutuqlariga tayanadi. Tilshunoslik badiiy matn til tizimi elementlari asosida – fonostilistika, leksik-semantik maydon, grammatik parallelizm, sintaktik konstruktsiyalar orqali o‘rganadi. Adabiyotshunoslik esa mazkur til vositalarining obraz yaratish, emotsional-ekspressiv ta’sir ko‘rsatish va estetik qiymat hosil qilishdagi rolini aniqlaydi. Shunday qilib, lingvopoetika badiiy matn nafaqat semantik mazmuni, balki uning formal-struktur qurilishi orqali estetik tizim sifatida talqin etadi.

Yuqorida Roman Jakobsonning fikrini ta’kidlaganimizdek, tilning poetik funksiyasi xabar mazmuniga emas, balki xabardagi so‘zlarning o‘zaro munosabatiga, tovush va ma’no qatlamlarining uyg‘unligiga urg‘u beradi. Bu nuqtayi nazardan Tog‘ay Murod nasri o‘zbek adabiyotida lingvopoetik jihatdan eng boy va o‘ziga xos yozuvchilardan biri bo‘lib, uning asarlarida ifodalangan obrazli ifodalar matnning nafaqat estetik, balki ideologik va falsafiy qatlamini ham shakllantirib turadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Tog‘ay Murodning badiiy tiliga munosabat bildirilgan bo‘lsa-da, ushbu masala ko‘pincha umumiy tavsif darajasida qolgan. Qozoqboy Yo‘ldoshev “So‘z yolqini” kitobida ba’zi o‘zbek adiblarining so‘z san’atida metafora va ramz tizimlarining milliy xarakter bilan uyg‘unligi ta’kidlaganligi to‘g‘risida fikr yuritilsa-da, biroq Tog‘ay Murodga xos bo‘lgan paxta-tuproq metaforasi, mavjudlik-umid ramzi kabi yaxlit lingvopoetik tizimlar maxsus ilmiy maqola darajasida tahlil qilinmagan. Peter Verdonkning stilistika bo‘yicha ishlarida esa badiiy matn tahlil qilishda obrazli ifodalarning semantik-kontekstual xususiyatlarini aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Shu yo‘nalishda Boqijon To‘xliyev ham “Adabiyotshunoslik asoslari” asarida milliy adabiyotdagi ramziy-metaforik qurilmalarni tahlil qilish zarurligini alohida qayd etgan. Ushbu yondashuvlar orqali Tog‘ay Murod asarlari tatbiq etilsa, nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik sohasi uchun ham yangi natijalarga olib kelishini guvohi bo‘lamiz. Shu o‘rinda yozuvchining ikkala romanni — “Otamdan qolgan dalalar” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” — qiyosiy-tipologik jihatdan, ulardagi obrazli ifodalar majmuyini ilmiy-lingvistik jihatdan qiyosiy tarzda tahlil qiluvchi maxsus tadqiqot olib boorish maqsadga muvofiq.

Ushbu maqolada aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ikki romandan olingan parchalar lingvopoetik jihatdan tahlil etilib, ulardagi metafora, ramz, takror, epitet va xalqona iboralar ko‘rib chiqilgan hamda ikkala asarning obrazli tizimidagi o‘xshashliklar va farqlar qiyosiy-tipologik metod yordamida qisman yoritib berilgan.

## METODLAR

Tadqiqot jarayonida Tog‘ay Murodning ikkala romani “Otamdan qolgan dalalar”(1994) va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” (2001) matni bevosita to‘liq o‘qib chiqildi hamda obrazli ifodalar (metafora, personifikatsiya, epitet, taqqos, frazeologizmlar va ramziy birliklar) lingvopoetik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan parchalar aniq mezonlar asosida ajratib olinib ularning estetik ta’siri, emotsional yuklamasi, milliy kolorit yaratishdagi roli va matnning umumiy badiiy tuzilishidagi o‘rni ko‘rsatib berildi. Asarlardan ajratib olingan parchalarning asosiy tahlili lingvopoetik usul yordamida amalga oshirilib, Roman Jakobsonning “Poetik funksiya nazariyasi”(1960) asos qilib olindi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tilning poetik funksiyasi so‘z va iboralarning oddiy kommunikativ ma’nosidan tashqari, ularning kontekstual ma’no qatlamlarini faollashtirib, o‘quvchida maxsus estetik ta’sir uyg‘otishini ta’minlaydi. Shuning uchun har bir obrazli ifoda fonetik, leksik va sintaktik darajada ko‘rib chiqildi. Metaforik va ramziy birliklarning chuqur semantik qurilishi esa George Lakoff va Mark Johnsonning kognitiv metafora nazariyasi doirasida tahlil qilindi. Mualliflarning konsepsiyasiga ko‘ra, metafora nafaqat til vositasi, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmi bo‘lib, kundalik hayotiy tajribani konseptual darajada tashkil etadi. Tadqiqotda bu nazariya yordamida Tog‘ay Murodning “yer-ona”, “dalalar-meros” va “paxta-qullik” kabi metaforalari konseptual asoslari ochib berildi hamda ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligi ko‘rsatildi.

Obrazli ifodalarning matn ichidagi haqiqiy vazifasini yanada to‘liqroq ochish maqsadida kontekstual tahlil ham qo‘llanildi. Har bir tanlangan parcha o‘zining joylashgan joyi sahna, dialog, monolog yoki lirik chekinish bilan birgalikda o‘rganildi. Bu usul obrazli ifodaning nafaqat alohida, balki butun matn tizimidagi dinamik rolini aniqlashga yordam berdi. Romanlar o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniq belgilash uchun qiyosiy-tipologik metoddan ham foydalanildi. Bu metod orqali yozuvchining badiiy obrazlar tizimi har ikki asarda ketma-ket kuzatilib, rivojlanish tendensiyalari, takrorlanuvchi motivlar va uslubiy o‘ziga xosliklar ochib berildi. Qo‘shimcha ravishda, stilistik tahlil (I.R. Galperin va I.V. Arnold nazariyalari asosida) va semantik komponent tahlili ham qo‘llanilgan bo‘lib, bu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini ta’minladi.

Ushbu metodlarning o‘zaro uyg‘unligi tadqiqotni yaxlit, tizimli va chuqur qilishga imkon berdi. Natijada Tog‘ay Murodning obrazli ifodalari nafaqat tasviriy vosita, balki lingvopoetik qurol sifatida yaxlit holda tahlil qilindi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Otamdan qolgan dalalar” romanida Tog‘ay Murod paxta obrazini yaxlit bir lingvopoetik tizimga aylantiradi. Maktab direktori o‘quvchilarga qiladigan nutq bu tizimning dastlabki ko‘rinishini ochib beradi: “Paxtazor daftaring bo‘ladi, g‘o‘zalar husnixating bo‘ladi!” Bu ibora ko‘rinishda ilhom baxsh tuyulsa-da, uning semantik qatlami o‘ta og‘ir: bola uchun tabiiy bo‘lgan bilim egallash huquqi paxta dalasiga alishtirilmoqda. Biroq bu metafora romanning borishida yanada qorong‘ilashib boradi: “Paxta ichi qora mato! Paxta odamzotni indamay boplaydi!” Bu yerda “ichi qora” birikmasi ham matoning fizik rangi, ham tizimning axloqiy mohiyatini bildiruvchi ikki qatlamli metafora bo‘lib xizmat qiladi. Bu metaforik zanjir nihoyat umumlashtiruvchi shaklga kiradi: “O‘zbek xalqi, o‘zbek tuprog‘i umrini paxtaga baxshida etdi. Qish demadi, yoz demadi paxta, dedi. Tun demadi,

kun demadi paxta dedi.” Takroriy tuzilma “demadi... demadi dedi” bir tomondan zamon va fasl tushunchalarini bekor qilsa, ikkinchi tomondan xalqning to‘la itoatini dramatik tarzda ifodalaydi. Shunday qilib, paxtaning “daftar”dan “qora mato”ga, u yerdan “umr baxshida qilingan narsa”ga aylanib borishi romanning lingvopoetik o‘qi bo‘lib xizmat qiladi va ijtimoiy tanqidni bevosita emas, obrazli tizim orqali yetkazadi.

Paxta metaforasiga yaqin holda, lekin undan ham chuqurroq qatlamda, romandagi tuproq va yer obrazlari joylashgan. Yozuvchi qahramonning jismoniy holatini yerning holati bilan tenglashtirganda, bu aloqa biologik emas, balki mavjudiyatli xarakter kasb etadi. Dehqonqulning yuzi paxta terimi paytida shunday tasvirlanadi: “Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi darz-darz yer bo‘ldi. Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi qaqroq-qaqroq yer bo‘ldi. Bet-boshim bet-bosh bo‘lmadi sho‘r-sho‘r yer bo‘ldi!” Uchta parallel jumla bir-birining o‘rnini olganda, odam yuzi ketma-ket uchta yer holati yorilib ketgan, qaqragan, sho‘rlangan bilan tenglashtiriladi. Bu tasvirda inson tanasi endi yer bilan tashqaridan taqqoslanmaydi; u yerga aylangan, yer bilan bir modda bo‘lgan. Keyinroq bu munosabat yanada chuqurlashadi: kimyoviy o‘g‘itlar ta‘sirida zaharlanib qolgan dalalar “ana shu odam misol piyonista bo‘lib qoldi” deb tasvirlanadi. Bu yerda metafora aks tomonga o‘tadi: avval odam yerga o‘xshatilgan bo‘lsa, endi yer odamga o‘xshatilmoqda. Bu o‘zaro-aks metafora Tog‘ay Murodning obrazli tafakkurining alohida belgisi bo‘lib, inson va tabiatni bir-biriga singdiruvchi yaxlit konseptual tizimni yaratadi.

Ikki romandagi obrazli ifodalarning eng muhim lingvopoetik qurilmalaridan biri takror va sintaktik parallelizmdir, biroq ikkala asarda bu vosita har xil maqsadda ishlatilgan. “Otamdan qolgan dalalar” romanida takror asosan hissiy zo‘riqishni ifodalash uchun ya‘ni cheksiz mehnat, qayta-qayta yuz beruvchi azob hissini yaratish uchun ishlatiladi. Dehqonqulning begona o‘t bilan kurashi shunday tasvirlanadi: “Begona o‘t ko‘zimni oldi. Begona o‘t ko‘nglimni oldi. Begona o‘t zavq-shavqimni oldi.” Uch gapning bir xil grammatik tuzilishi, biroq ko‘tariluvchi talafot qatoriga ko‘z, yurak, quvonch ketma-ket sanab o‘tilishi bu qurilma o‘quvchiga begona o‘tning odam qalbiga qanday chuqur va keng kirib borganini ritmik zarbalar orqali his ettiradi. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida esa takror falsafiy ta‘kid uchun ishlatiladi. Qarigan inson haqidagi mulohaza shunday quriladi: “Umid odam uchun misoli ufq. Umid odamzot uchun odamzot ufqi. Olamni oxiri ufq. Odamni oxiri umid!” Bu yerda takror dialektik aylana hosil qiladi: har gal qaytganda yangi ma‘no qo‘shilib boradi. Shu farq muhim: birinchi romandagi takror labda va qo‘lda mehnatchi ovozini eshittirsa, ikkinchi romandagi takror aqlli xulosa chiqaruvchi faylasuf ovozini tug‘diradi.

Tog‘ay Murodning ikki romanida ramziy obrazlarning tizimi ham chuqur va izchil o‘ylab qurilgan. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida kuz va xazon manzarasi faqat tabiat tasviri bo‘lmasdan, qahramonlarning ruhiy tanazzulini aks ettiradi: “Boshlari uzra hazon yog‘di. Ust-boshi uzra hazon yog‘di. Suv yuzini hazon yopdi. Suv yuzida hazon qalqdi.” Bu yerda “hazon yog‘di” grammatik shakli yomg‘irga o‘xshatiladi, lekin yomg‘ir o‘rniga hazon yog‘moqda — bu almashtirish bejiz emas: yomg‘ir hayot va yangilanishni, hazon esa tugashni ramzlaydi. Shu bilan birga romanda qalin ramziy ma‘no kashf etiladi: “Qafasda yashayotgan kaptarni qo‘yib yuborsang nima bo‘ladi? Kaptar pat-pat etib, ozodlikka otilib chiqadi. Dastlab, qayoqqa uchishini bilmaydi.” Bu ibora birinchi qarashda

psixologik kuzatish tuyulsa-da, uning kontekstida sovet tizimi tugaganidan keyin ozod bo'lgan, ammo nima qilishini bilmaydigan Botir firqa naslining ruhiy holatini ifodalaydi. Kaptar qafasda o'sgan, ozodlikni qanday ishlatishni o'rganmagan — bu metafora siyosiy ma'noda ham, shaxsiy ma'noda ham bir vaqtda ishlaydi. Ikki ramzni solishtirish — hazon va kaptar — birgalikda bir asosiy fikrni ifodalaydi: sovet davridan keyin kelgan o'zgarish ham eski dunyoni yo'q qildi, ham yangi dunyoni yaratishga ulgurmadi.

Ikkinchi romanning eng quchli lingvopoetik kuchi uning falsafiy refleksiyalari bilan bog'liq. Bu refleksiya birdan qotib qolgan hukm kabi emas, balki obrazli mushohadaning pishib yetilishi kabi paydo bo'ladi. Botir firqaning inqiroz nuqtasidagi izhori shunday eshitaladi: “Ideal qolmadi, uka, ideal qolmadi! Idealsiz yashab bo'lmaydi, uka, idealsiz yashab bo'lmaydi! Idealsiz hayot — hayot emas, uka.” Bu jumlar grammatik jihatdan oddiy, ammo ularning takroriy qurilishi va “uka” murojaat so'zining har gal qaytib kelishi gap bir kishi bilan emas, balki o'zi bilan — ya'ni ichki monolog sifatida — aytilayotganini his ettiradi. Romanning nom beruvchi g'oyasi esa oxir-oqibat yaqqol yuzaga chiqadi: “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi! Bu dunyoda yashab bo'ladi. U dunyoda... o'lsa bo'ldi! U dunyoda quyosh yo'q. U dunyoda suv yo'q. U dunyoda non yo'q. U dunyoda... KPSS yo'q, KPSS yo'q!” Bu parchaning lingvopoetik qurilishi juda nozik: u dunyoning tavsifi yerdan, suvdan va nondan mahrum bo'lgan joy sifatida boshlanadi — bu diniy tasavvurlarga mos. Ammo oxirgi “KPSS yo'q” iborasi keskin burilish va lirik ironiya yaratadi: o'lib bo'lmaslikning asosiy sababi — bu dunyoda hali yashash lazzati borligida emas, balki bu dunyoda hali KPSS ham borligida! Bu ironik zarbani tayyorlab berish uchun avvalgi takrorli qurilma zarur bo'lgan — shu qurilmaning sirti zamirida kuchli siyosiy istehzo yashirinib turibdi.

Romandagi ijtimoiy munosabatni ifodalovchi metaforalar ham mustaqil lingvopoetik tizimni tashkil etadi. Kasalxonada sahnasidagi dialog bu tizimning markaziy halqasini ko'rsatib beradi: “Qabriston, qabriston! Bu kasalxonada emas, tirik insonlar qabriston. Asl qabriston o'lik insonlarni ko'madi, bu qabriston... tirik insonlarni ko'madi.” Psixiatrik kasalxonaning qabriston bilan tenglashtirilishi yangi ramziy qatlam ochadi: bu muassasada insonlar jismoniy emas, ruhan ko'miladi. “Tirik insonlar qabriston” so'z birikmasi oksyumoron hisoblanadi — tirik va qabriston so'zlari bir-biriga zid, ammo Tog'ay Murod ularni bir yerda birlashtirish orqali qo'rqinchli haqiqatni ko'rsatadi. Bu tizim yangi bir o'q oladi: “Shizofreniya — partiya-hukumat uchun bamisoli bema'hal qichqirgan xo'roz bo'ladi.” Bu birikmada kasallik ham, xo'roz ham mavjud; biroq metaforaning o'qi shundaki, bema'hal qichqirgan, ya'ni haqiqatni no'rin paytda aytib qo'yuvchi inson siyosiy tizim nazarida “shizofreniyali” hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, byurokratik tizim mohiyatini ritmik takror orqali ochib beruvchi parcha ham o'sha haqiqatni yanada keskin ifodalaydi: “O'zingdan baland amaldor nima desa — ana shuni bajar. So'zsiz bajar. Ahmoqona bo'lsa-da, bajar. Ablahona bo'lsa-da, bajar. Ko'r-ko'rona bajar.” Har bir gapning “bajar” so'zi bilan tugashi oddiy buyruq emas — bu tizimning o'zini qo'llash usulini, ya'ni so'zsiz itoatni, musiqiy ritm bilan ko'rsatuvchi poetik qurilmadir.

Ikki romanning obrazli tizimlarini qiyoslash asosida bir muhim farq ko'zga tashlanadi: “Otamdan qolgan dalalar” romanida obrazlilik aksariyat holda jismoniy, hissiy va yerga yaqin — bet-bosh yer bo'ladi, dalalar bolalaydi, qon ko'z oldida qizaradi — ko'rinishda

namoyon bo‘lsa, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida obrazlilik asta-sekin mavhum va falsafiy ko‘rinishga o‘tadi: ufq, umid, hazon, qafas, kaptar kabi obrazlar geografik emas, gnoseologik belgilarga aylanadi. Bu o‘zgarishni Naim Karimov yozuvchi ijodining ikki davri o‘rtasidagi tilga xos siljish deb tavsiflagan : birinchi romanlarda xalqona, yerga yaqin uslub ustunlik qilsa, so‘nggi asarlar falsafiy-lirik yuqorilashni ko‘rsatadi. Biroq bu farq uslub o‘zgarishi bilan birga tematik o‘zgarishni ham aks ettiradi: birinchi romanda Dehqonqul yer bilan kurashadi, ikkinchi romanda Botir firqa o‘zining umri va tizim bilan kurashadi. Shu sababli birinchi romandagi “Bolalarim, bizning yurtga Amir Temurlar kerak. Bizning yurtga Boburlar kerak. Bizning yurtga Ulug‘beklar kerak” kabi xalqona-epos uslubidagi nutq ikkinchi romandagi “Olamni oxiri — ufq. Odamni oxiri — umid!” kabi individual-lirik mushohadaga almashadi. Bir so‘z bilan aytganda, Tog‘ay Murodning obrazli tafakkuri birinchi romanda yerdan oziq olgan bo‘lsa, ikkinchi romanda — ufqqa qarab qanotlangan.

Ikki romanda xalqona iboralar va dialektal leksikaning obrazlilikka qo‘shgan hissasi ham alohida e‘tibor talab qiladi. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanida xalqona festivalni aks ettiruvchi ibora keskin ijtimoiy tanqidga aylantirilib yuboriladi: “Shon-shuhrat — arafa hayit! Mansab-martaba — uch kunlik hayit! Hayit o‘tgach, xinoni... ketingga qo‘y, deydilar!” Bu yerda “arafa hayit” va “uch kunlik hayit” xalq tafakkuridagi vaqtinchalik narsalarning ramzi, “xinoni ketingga qo‘y” esa qo‘polroq xalqona ibora bo‘lib, birga kelganda mansab va shuhratning mutlaqo behuda ekanini uyg‘un bir poetik qurilishda ifodalaydi. Shu romanda kosmik obrazlarning xalqona tarzda ifodalanishi ham e‘tibor tortadi: “Xudoyim taolo odamzot ustidan atigi bir kun... bir kungina quvonch yomg‘irini yog‘diribdi! Keyin, odamzot ustidan... qirq kun... g‘am selini yog‘diribdi!” Bu yerda quvonch yomg‘irga, qayg‘u selga o‘xshatiladi; “qirq kun” raqami esa Qur‘oniy va xalqona tafakkurdagi muqaddaslashgan son hisoblanib, matnning diniy-poetik qatlamini boyitadi. Bunday iboralar Tog‘ay Murodning obrazli tizimiga milliy koloritni singdiradi, uning asarlarini o‘zbek xalqining tarixiy tajribasi va ma‘naviy olamidan bevosita oziq olgan sifatida tavsiflashga asos beradi.

#### XULOSA

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlarini lingvopoetik va qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish bir qator muhim xulosalarga olib keldi. Birinchidan, har ikki romandagi obrazli ifodalar — metafora, ramz, takror, epitet va xalqona iboralar — muallif uslubining bezagi sifatida emas, balki ma‘no va g‘oya ifodalovchi yaxlit lingvopoetik tizim sifatida ishlaydi. Ikkinchidan, ikkala romanning obrazli tizimlari bir-biridan farqlanadi: “Otamdan qolgan dalalar”da obrazlilik yerga, mehnatga va jismoniy azobga yaqin bo‘lsa, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”da u umid, ozodlik, ideal va mavjudlik kabi mavhum falsafiy konseptlarga ko‘tariladi. Uchinchidan, takroriy-parallel qurilmalar birinchi romanda cheksiz mehnat ritmini, ikkinchi romanda esa ichki fikr va xulosalarning ta‘kidini ifodalaydi. To‘rtinchidan, paxta-tuproq va qabriston-kasalxona kabi metaforik tizimlar ikki romanda siyosiy va ijtimoiy tanqidni bevosita aytmasdan, obrazli vositalar orqali etkazuvchi eng kuchli lingvopoetik qurilmalar bo‘lib xizmat qiladi. Beshinchidan, xalqona iboralar va dialektal leksika ikkala romanda ham milliy-madaniy semantikani saqlaydi va asarlarni o‘zbek xalqining tarixiy tajribasiga

bevosita bog'laydi. Umuman olganda, Tog'ay Murod badiiy tilining kamoli — yerdan ufqqa, jismondan falsafiyga tomon yuksalish — uning ikki romani qiyosida yaqqol ko'rinadi va bu o'zbek nasrida unikum bo'lgan bir lingvopoetik evolyutsiyani ifodalaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jakobson R. *Linguistics and Poetics // Style in Language* / Ed. Sebeok T. — Cambridge, 1960. — P. 350–377.
2. Verdonk P. *Stylistics*. — Oxford: Oxford University Press, 2002. — P. 4–19.
3. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago, 1980. — P. 3–13.
4. To'hliyev B. *Adabiyotshunoslik asoslari*. — Toshkent, 2006. — B. 87–115.
5. Yo'ldoshev Q. *So'z yolqini*. — Toshkent, 2008. — B. 44–67.
6. Karimov N. *Ijod sehri*. — Toshkent, 2003. — B. 201–219.
7. Tog'ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. — Toshkent: Sharq, 1994. — B. 27, 33, 37, 53, 74, 82, 100.
8. Tog'ay Murod. *Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi*. — B. 21, 26, 30, 41, 49, 70, 71, 80, 89, 94.